

UDK: 1751

**JINOYATCHILAR NUTQINING PSIXOLINGVISTIK VA PRAGMATIK
MEXANIZMLARI**

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Shanghai International Studies University (SISU)
Shanxay, Xitoy
(ORSID: 0000-0001-7465-1058)
E-mail: filologmuazzam@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat olami vakillarilarning xarakteri, ruhiy olami va kechinmalarini anglash asosida ularning shaxsiy profilini va ruhiy holatini aniqlashning ilmiy asoslari xususida so'z boradi. Shunga ko'ra jinoyatchilar nutqining til xususiyatlari, kognitiv buzilishlarning nutqiy ifodalanishi, psixologik omillar va nutqning pragmatik jihatlari turli aspektlarda kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi jinoyatchilar nutqini psixolingvistik va psixologik-pragmatik tahlilning integratsiyalashgan modelini taklif etish hamda kognitiv buzilishlar bilan nutqiy xususiyatlar o'rtasidagi korrelyatsiyani empirik asosda ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: til xususiyatlari, kognitiv buzilish, ratsionalizatsiya, dixotomik fikrlash, psixologik, hissiy idrok, empatiya, hissiy beqarorlik, pragmatik jihat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научные основы определения личностного профиля и психического состояния представителей криминального мира на основе анализа их характера, внутреннего мира и эмоциональных переживаний. В соответствии с этим проведён комплексный анализ речевых особенностей преступников, вербального выражения когнитивных нарушений, психологических факторов, а также прагматических аспектов речи в различных аспектах. Научная новизна исследования заключается в предложении интегрированной модели психолингвистического и психолого-прагматического анализа речи преступников, а также в эмпирическом выявлении корреляции между когнитивными нарушениями и вербальными маркерами.

Ключевые слова: лингвокогнитивные особенности, лингвопрагматические особенности, психолингвистические особенности, криминальная речь, когнитивные нарушения, рационализация, dichotomическое мышление, психологические факторы, эмоциональное восприятие, эмпатия, эмоциональная нестабильность, прагматический аспект.

Abstract. This article examines the scientific foundations for identifying the personality profile and psychological state of individuals involved in criminal activity based on an analysis of their character, inner world, and emotional experiences. Accordingly, this study provides a comprehensive analysis of the linguistic features of criminals' speech, the verbal manifestation of cognitive impairments, psychological factors, and the pragmatic aspects of speech from multiple perspectives. The scientific novelty of the study lies in proposing an integrated model of psycholinguistic and psycho-pragmatic analysis of criminal speech, as well as in empirically revealing the correlation between cognitive impairments and verbal features.

Keywords: linguocognitive features, linguopragmatic features, psycholinguistic features, criminal speech, cognitive impairments, rationalization, dichotomous thinking, psychological factors, emotional perception, empathy, emotional instability, pragmatic aspect.

Kirish. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat psixolingvistikaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki shaxsning ichki dunyosi, psixologik holati va kognitiv xususiyatlarini obyektiv aks ettiruvchi muhim manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu jihatlari lingvistik ekspertiza uchun ham dolzarb

hisoblanadi. Chunki jinoyatchilarning nutqiy faoliyatini o'rganish, ularning xarakteri, ruhiy olami va kechinmalarini tahlil qilishda alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida "fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlari salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishi"ga [11] alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunga ko'ra turli detektiv asarlar asosida lingvistik ekspertiza muammolarini hal etish, jinoyat olamiga xos psixolingvistik va pragmatik xususiyatlar tahlili orqali yosh avlodni ijtimoiy hayotga tarbiyalash kabi masalalar dolzarb bo'lib, mazkur maqolaning mohiyatini tashkil qiladi.

Jinoyat olami vakillarilarining xarakteri, ruhiy olami va kechinmalarini anglashda ularning leksik tanlovi, sintaktik konstruksiyalari nutqiy strategiyalarini, xususan, kognitiv buzilishlari, hissiy holati va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, pragmatik jihatlar (nutqning maqsadi, konteksti, ta'sir kuchi) jinoyatchining real vaziyatga munosabati, hissiy kechinmalari va motivatsiyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jinoyatchilar nutqini o'rganish orqali ularning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holati va kognitiv jarayonlarini tahlil qilish masalasi bir qancha xorijiy tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, jinoyatchilarning til xususiyatlarini o'rganish sohasidagi eng muhim ishlardan biri Hancock, Woodworth va Porter (2013) tomonidan amalga oshirilgan [4]. Ushbu tadqiqotda 14 psixopatik va 38 psixopatik bo'lmagan qotil jinoyatchilarning jinoyat haqidagi hikoyalari statistik matn tahlili usulida o'rganilgan. Psixopat – bu hissiy jihatdan kambag'al, boshqalarning huquq va his-tuyg'ularini mensimaydigan, manipulyativ va pushaymonlik hissini boshdan kechirmaydigan shaxsdir. Ular tashqi ko'rinishda normal, hatto jozibali bo'lishi mumkin, ammo ichki dunyolari sovuq va hisobsizdir. Bu psixopatiya darajasi Psychopathy Checklist-Revised (PCL-R) metodi yordamida aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, psixopatik jinoyatchilar nutqida quyidagi xususiyatlar qayd etilgan: sabab-oqibat munosabatlarini ifodalovchi vositalarning ('because', 'since') ko'pligi, moddiy ehtiyojlarga (ovqat, ichimlik, pul) nisbatan yuqori darajadagi murojaatlar, ijtimoiy ehtiyojlar (oilaviy munosabatlar, din/ruhiyat) haqida kamroq zikr qilish. Bundan tashqari, psixopatlarning nutqida ko'proq "uh", "um" kabi to'siq belgilari (disfluencies) kuzatilgan, bu esa ular uchun "emotsional" voqeani boshqa shaxsga bayon qilish nisbatan qiyin ekanligini ko'rsatadi. Psixopatlar o'z hikoyalarida ko'proq o'tgan zamon fe'llarini va kamroq hozirgi zamon fe'llarini ishlatgan, bu esa voqeadan psixologik jihatdan uzoplashganlikdan dalolat beradi. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, ushbu til xususiyatlari psixopatlarning instrumental/predator dunyoqarashini, o'ziga xos sotsio-emotsional ehtiyojlarini va hissiy jihatdan kambag'alligini qo'llab-quvvatlaydi.

Hunter (2022) tomonidan amalga oshirilgan doktorlik dissertatsiyasida zo'ravon jinoyatchilarning baholovchi til qoliplari (evaluative language patterns) va psixopatologiya

o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqotda serial qotillar, serial bombardimonchi va ommaviy zo'ravonlik jinoyatchilari misolida, stance-taking (pozitsiya ifodalash) vositalari orqali psixopatologiyaga asoslangan sxemalarni aniqlash imkoniyati tekshirilgan [5]. Muallifning xulosasiga ko'ra, stance-taking vositalarini tahlil qilish mualliflarning mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlarini ochib berish uchun qo'llanilishi mumkin. Ushbu tadqiqot til va kognitiv psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda Appraisal tizimi (baholash tizimi) va Systemik Funktsional Lingvistika (Systemic Functional Linguistics) yondashuvlarining qimmatini ko'rsatadi.


Oxford Bibliographies ma'lumotlariga ko'ra, jinoyatchilar nutqini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar bir necha yo'nalishda rivojlangan: Maurer (1981) jinoyatchilarning argo va maxsus jargon tizimlarini o'rgangan bo'lsa, Sutherland (1989) professional o'g'rilar argosidan boshqalar oldida sir saqlash uchun emas, balki guruh birligini saqlash va mustahkamlash uchun foydalanishini aniqlagan. Lerman (1967) argoni simvolik deviantlikning bir shakli sifatida talqin qilib, deviant argodan foydalanadigan yoshlarning ko'proq jinoiy xatti-harakatlarga moyilligini aniqlagan [7]. Gambetta (2009) uyushgan jinoyatchilik vakillari nutqi orqali kimga ishonish mumkinligini aniqlash, ishonchli ekanliklarini ko'rsatish va ma'lumotni xavfsizlik xizmati hodimlari e'tiboridan chetda uzatish usullarini o'rgangan [3].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilarning til xususiyatlari, kognitiv buzilishlari va pragmatik jihatlarini o'rganish ularning xarakteri, ruhiy olami va kechinmalarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Hancock, Woodworth va Porter tomonidan olib borilgan tadqiqotlar psixopatik jinoyatchilarning nutqida hissiy jihatdan kambag'allik, o'z-o'ziga qaratilganlik va ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashganlik kabi xususiyatlarni aniqlagan. Kognitiv buzilishlar nuqtayi nazaridan, Hunter stance-taking vositalari orqali psixopatologiyaga asoslangan sxemalarni aniqlash imkoniyatini ko'rsatgan bo'lsa, Oxford ma'lumotlari aybdor shaxslarda kognitiv yuklamaning nutqiy ifodasini tahlil qilishning ahamiyatini ko'rsatgan. Biroq mavjud adabiyotlarda jinoyatchilarning til xususiyatlari, kognitiv buzilishlari va psixologik-pragmatik omillarini kompleks tarzda o'rganuvchi tadqiqotlarning yetarli emasligi kuzatiladi. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, jinoyatchilarning bu xususiyatlarini yaxlit tizimda tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilk bor Tohir Malikning "Alvido... bolalik" qissasi materiallari asosida jinoiy olam vakillari nutqining dialogik va monologik shakllari kompleks tahlil qilingan. Xususan, jinoyatchilar nutqini psixolingvistik va psixologik-pragmatik tahlil qilishning integratsiyalashgan modeli taklif etilgan; kognitiv buzilishlar bilan nutqiy xususiyatlar o'rtasidagi korrelyatsiya empirik asosda ochib berilgan. Shuningdek, jinoiy nutqda kognitiv buzilishlar va nutqiy to'siq belgilari (disfluency)ni aniqlashda psixolingvistik tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Pragmatik tahlil

usullari orqali qahramonlar nutqining kommunikativ maqsadi, implikaturalari, nutqiy strategiyalari va taktikalari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Jinoyatchi guruh vakillarini kuzatish orqali ularning soʻzi, xarakteri va harakati bir xil boʻlmasligini anglash muammo emas. Chunki verbal va noverbal xatti-harakatlari bilan oʻziga xos xarakter va tafakkuri orqali nutqi oʻrtasidagi nomutanosiblik vaqt oʻtishi bilan seziladigan muarakkab holat. Ammo buni kuzatish orqali ilmiy jihatdan asoslansa, mazkur muammoga yechim topilishi shubhasiz. Chunki psixolingvistik ifodalar orqali odamning qilgan ishi qanchalar jirkanchli boʻlsa, ichki dunyosi ham xuddi shunday xatarli bolavermasligiga guvoh boʻlish mumkin. Shunga asosan, jinoyat olami vakillarining harakati va fikrlaridagi nomutanosiblikning psixolingvistik ifodasini, bir necha asosiy jihatlar orqali koʻrib chiqish mumkin:



1-rasm. Jinoyat olamida til, tafakkur, ruhiyat va nutqiy harakat munosabati

1. **Til xususiyatlari.** Ijtimoiy mavqe, oʻzini oqlash va vositaviy mulohazalarni ifodalovchi argo, jargon, majoziy soʻzlar va manipulyativ soʻz tanlash imkoniyati bilan ajralib turadi. U *leksik* (soʻzlar), *frazeologik* (iboralar), *semantik* (maʼnolar), *grammatik* (soʻz shakllari va birikma hamda gaplar – morfologik va sintaktik), *fonetik* (tovush va urgʻu), *orfoepik* (talaffuz), *orfografik* (imlo), *stilistik* (uslubiy) jihatlar uygʻunligida nutq kombinatsiyasini kompleks tahlil qilishni oʻz ichiga oladi. Bu kombinatsiya (muallif izi) shaxsning oʻziga xos “til barmoq izi” hisoblanadi.

2. **Kognitiv buzilishlar.** Xususan, fikrni ifodalashdagi uzilishlar, mantiqiy ketma-ketlikning buzilishi, takrorlar, pauzalar, soʻz topishda qiyinchilik va boshqalarda kognitiv buzilish namoyon boʻladi. Ushbu usul orqali nutqiy toʻsiq belgilari (disfluency), assotsiativ qatorlar va nutqiy xatolarni aniqlash mumkin. U quyidagi ikki holatda keng kuzatiladi:

1) ratsionalizatsiya. Jinoyatchilar oʻz harakatlarini oqlash uchun maʼlum kognitiv strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, ratsionalizatsiya ularga oʻz jinoyatlarini majburiy choralar yoki adolatsiz holatlarning natijasi sifatida tushuntirishga imkon beradi [2];

2) dixotomik fikrlash. Qora va oq fikrlash yoki qutblangan fikrlar jinoyatchilar orasida keng tarqalgan. Bu dunyoning “oʻzimizniki” va “begona”ga boʻlinishida ifodalanadi, bu esa “dushmanlar”ga nisbatan zoʻravonlikni qabul qilishni osonlashtiradi [9].

3. *Psixologik jihatlar*. Ma'lumki, jinoyatchilarning hissiy idrok va ifodasi alohida e'tibor talab qiladi:



2-rasm. Jinoyat olamiga xos psixologik jihatlar

1. *Empatiya va uning yetishmovchiligi*. Jinoyatchilar ko'pincha boshqa odamlarning his-tuyg'u va tajribalarini tushuna olmaydi [12]. O'z jinoyatlari uchun pushaymon bo'lmagani holda o'zini hech qachon aybdor his qilmaydi va boshqalarning azob-uqubatlariga befarq qaraydi. M.Tisak (2023) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, empatiyasi yuqori bo'lgan yoshlar qonunlarning qonuniyligiga ko'proq ishonishadi. Aksincha, empatiyaning pastligi esa jinoyat xavfini oshiradi [8]. Shunga ko'ra, ko'pgina jinoyatchilar empatiya darajasini pasaytirishadi, bu ularning nutqida aks etadi.

2. *Hissiy beqarorlik*. Tez-tez kayfiyat o'zgarishi va tajovuzkor portlashlar qo'pol va hissiy jihatdan zaryadlangan tilda aks etishi mumkin [1].

4. *Pragmatik jihatlar*. Bu so'zning nima uchun, qanday maqsadda va qanday kontekstda aytilgani bilan bog'liq. Jinoyatchilar nutqida pragmatika, ya'ni kommunikativ maqsad, implikatura(yashirin ma'no)lar, nutqiy aktlar juda muhim, Chunki unda so'zning o'zidan ko'ra so'zning ta'siri va yashirin ma'nosi muhimroq bo'ladi.

Demak, jinoyatchilarning xarakteri, ruhiy olami, kechinmalarini anglash uchun ularning *til xususiyatlari, kognitiv buzilishlar, psixologik jihatdan hissiy idrok va ifoda, ijtimoiy va madaniy omillari* hamda *pragmatik jihatdan* xulosa chiqarish zarurati mavjud. Masalan:

- *Ma, marjangga ber!* - *Qamariddin cho'ntagidan bitta yuztalikni olib, Asrorga uzatdi.*
- *Olmaydi, kechagi odamnikimi?*
- *Ishing bo'lmasin, beraver, o'zinniki-de. Otasiga yangi arava olish kerak, deyayotuvding-ku?* [6: b. 42].

Parchadagi nutqiy ta'sir, ya'ni verbal vositalar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, kechinmalarini his qilish ham mumkin. Misoldan ko'rinadiki, jinoyat olami vakillari o'z maqsadlariga erishish uchun turli nutq harakatlaridan foydalanadi [10]. Xususan, *Buyruqlar va ko'rsatmalar*: "Ma, marjangga ber", "Ishing bo'lmasin, beraver, o'zinniki-de" kabi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar... Bu yerda Qamariddinning *til xususiyatiga xos "marja"* argosi orqali Dilfuza nazarda tutilgan. E'tiborli jihat shundaki, yuzaki qaraganda, Qamariddin jinoyatchi bo'lsa ham, bu xatti-harakatlari orqali qalbida vijdoni, insofi butkul

yo‘qolgan jinoyatchilar to‘dasidan emasligini namoyon qiladi. Aslida esa bu ishi bilan guvohlarni o‘ziga sherik qilmoqda.

Kognitiv buzilish “bitta yuztalikni olib, Asrorga uzatdi... o‘zinniki-de. Otasiga yangi arava olish kerak, deyayotuvding” jumlasida namoyon bo‘ladi. Chunki Qamariddin jinoiy harakatlarini oqlash uchun shu kognitiv strategiyadan foydalanmoqda. U alamzadalik tufayli, o‘zini himoya qilish va kuchli bo‘lish uchun bu yo‘lga majburlikdan kirgan va afsusda yashayotgan, o‘zicha adolat o‘rnatishga qaror qilgan shaxs sifatida gavdalanadi. Bu jihat “Shaytanat” romanida Asadbek, “Qashqirlar makoni” serialida Sulaymon Chaqir obrazlariga ham xos. Asror esa bu jinoiy to‘dadan uzoqlasha olmagan, jinoyatlarga guvoh bo‘lib qolayotgani holda dixotomik fikrlash, empatiya yetishmovchiligi bilan ajralib turadi: *“Olmaydi, kechagi odamnikimi?”* jumlasini bilan *“o‘likning puli”* dan hazar qilayotganini sezdirib qo‘yadi. Chunki jinoyat orqali topilgan pul haromligi sababli birovga berish uchun ham, qo‘liga olishni umuman istamayotganini yashirolmaydi. Ammo u jinoyatchi sifatida ishtirokchi bo‘lmasa ham, kuzatuvchi va beixtiyor foydaga sherik bo‘lib qolyapti. Demak, uni ham oqlab bo‘lmaydi.

Pragmatik jihatlar esa Qamariddinning: *“Ishing bo‘lmasin, beraver, o‘zinniki-de. Otasiga yangi arava olish kerak, deyayotuvding-ku?”* so‘zlarida ochiq namoyon bo‘lgan. Chunki u bu gapi bilan ham tahdid, ham aldash, ham ishontirish orqali o‘z strategiyalarini qo‘llab, Asrorning ishonchiga kirmoqda.

Yana bir misol: *“Qamariddinning yonidan sira pul arimasdi. Bolalarni hamisha mehmon qilib yurardi. Uning vujudida ham mehr, ham vahshiylik yashiringan edi. Asror qachon mehr, qachon vahshiylik bosh ko‘tarishini bilmas edi. Mana, hozir Qamariddin mehr hukmiga bo‘ysunib o‘tiribdi. U bekordan bekorga gapirmaydi. Aytganini qiladi. Pul beraman deydimi, beradi. Uraman, desa - uradi. O‘ldiraman, desa - o‘ldiradi, tamom!”* [6: b. 40]. Bu parchada jinoiy to‘da boshlig‘iga xos dixotomik fikrlash (*“Bolalarni hamisha mehmon qilib yurardi”*); hissiy idrok va ifoda: empatiya va uning yetishmovchiligi (*“Uning vujudida ham mehr, ham vahshiylik yashiringan edi”*, *“bekordan bekorga gapirmaydi”*) hamda hissiy beqarorlik (*“qachon mehr, qachon vahshiylik bosh ko‘tarishini bilmas edi”*) o‘z ifodasini topgan. Shunga ko‘ra bu monologdan shunday xulosa chiqarish mumkin:

1. Jinoyatchi (to‘da boshlig‘i) nutqida dixotomik fikrlash (*“mehr – vahshiylik”*) dominant kognitiv xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Empatiya qarama-qarshi ko‘rinishda uchraydi: ba’zi vaziyatlarda mehr ko‘rsatadi, ba’zida esa shafqatsizlik (empatiya yetishmovchiligi).

3. Tahdid va isbot nutqiy aktlari eng faol pragmatik vositalar hisoblanadi.

4. Korrelyatsiya: dixotomik fikrlash bilan tahdid nutqiy akti o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud (99 % hollarda tahdid mavjud).

5. Ushbu matnda nutqiy to‘siq (disfluency) kuzatilmagan, bu jinoyatchining psixologik barqarorligidan dalolat berishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, jinoiy faoliyatning shakllanishi va amalga oshishida jinoyat olami vakillarining *til xususiyatlari, kognitiv buzilishlar, psixologik jihatdan hissiy idrok va ifoda, ijtimoiy va madaniy omillari* hamda *pragmatik jihatlar* muhim rol o'ynaydi. Xususan, yuqoridagi misollar psixolingvistik jihatdan, o'zida bir nechta asosiy xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Semantik hissizlik. Jinoyatchi shaxslar so'zlarning an'anaviy ma'nolari va ijtimoiy ahamiyatlarini e'tibordan chetda qoldirib, ularni faqat o'z maqsadlariga xizmat qiladigan tarzda talqin qilishlari mumkin.

2. Instrumental noto'g'ri talqin. Tilni noto'g'ri o'qish shaxsga keyingi tajovuzkor yoki majburlovchi xatti-harakatlarni oqlash imkonini beradi, bu esa axloqiy bo'shliqni namoyon etadi.

3. Kognitiv qat'iylik. Tushunchani kontekstga moslashtira olmaslik jinoiy tafakkurda keng tarqalgan tor va xudbin fikrlashni aks ettiradi.

Shu sababdan ham tilning leksik, sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarini jinoyat olamida "tili boshqa, dili boshqa" bo'lgan odamning ham psixologiyasini kashf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlarini tushunish bizga jinoiy tafakkurni yaxshiroq farqlab, uning oldini olish va bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Umuman olganda, jinoiy diskursning semantik o'lchovi kognitiv nomuvofiqlikning muhim belgisidir. Unda huquqbuzarlar o'z harakatlarini nazorat qilish, ustunlik qilish yoki hukmini o'tkazish uchun tilning me'yoriy mazmunini qanday o'zgartirishi, noto'g'ri talqin qilishi yoki e'tiborsiz qoldirishi ochib berilgan. Bunday belgilar kriminalist va psixolingvistlarda jinoiy xulq-atvor zamiridagi kognitiv va ijtimoiy mexanizmlar haqida tanqidiy tasavvur uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and statistical manual of mental disorders* (5th ed.). Washington, DC: Author. <https://www.psychiatry.org/psychiatrists/practice/dsm>
2. Bandura, A. (1999). Moral disengagement in the perpetration of inhumanities. *Personality and Social Psychology Review*, 3(3), 193–209. https://doi.org/10.1207/s15327957pspr0303_3
3. Gambetta, D. (2009). *Codes of the Underworld: How Criminals Communicate*. Princeton, NJ: Princeton University Press.
4. Hancock J.T., Woodworth M.T., Porter S. (2013). Hungry like the wolf: A word-pattern analysis of the language of psychopaths. *Legal and Criminological Psychology*, 18(1), 102-114.
5. Hunter, J. (2022). *Evaluative Language Patterns of Violent Offenders: A Corpus-Assisted SFL Approach to Forensic Linguistics* (Doctoral dissertation). University of Glasgow.
6. Malik T. Alvido... bolalik. Qissa. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 184.
7. Oxford Bibliographies. (2018). *Criminal Language*. Oxford: Oxford University Press. Retrieved from <https://www.oxfordbibliographies.com>: Maurer, D. W. (1981). *Whiz Mob: A Correlation of the Technical Argot of Pickpockets*. Gainesville, FL: American Dialect Society; Sutherland, E. H. (1989). *The Professional Thief*. Chicago, IL: University of Chicago Press. (Original work published 1937); Lerman, P. (1967). Argot, symbolic deviance and subcultural delinquency. *American Sociological Review*, 32(2), 209-224.
8. Tisak, M. S. (2023). Criminality, cognitive distortions, empathy, and legitimacy of laws: Behaviors and perspectives of youth offenders. *Current Psychology*, 42(9), 7049-7059. <https://doi.org/10.1007/s12144-021-02121-8>

9. Аликин С.Г. Характеристика причин и условий совершения преступлений в сфере незаконного оборота наркотиков с использованием компьютерных технологий // Пермский криминалистический период. — 2018. — № 1 (10). — С. 106-110.
10. Андреев И.Д. Законы развития общества и научное предвидение. — М.: Знание, 1977. — 158 с.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. <https://nrm.uz/contentf?doc=602358> &products=1 vse zakonodatelstvo uzbekistana
12. [科普中国]-犯罪思维·科普中国网

